Bilim
Innovatsiya
Barqaror rivojlanish

Oktabr
№10, 2026

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNALI

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology



№ 083688

ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o'rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To'lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
Tahrir hay'ati:
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili:
t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti:
https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 1107 sahifa.
2026-yil, №10. oktabr.

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

KONSTANTIN IVANOVICH KURPAYANIDI
Green energy transition in Central Asia: capacity growth, technological diversification and system constraints.....11
TURSUNKULOVA GULCHIROY BURXONOVNA
Meva-sabzavotchilik korxonalarida biologik aktivlarni hisobga olishni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....24
MO‘MINOV ABDUVALI AKBARALIEVICH, DJO‘RAEV MUQIMJON YAQUBJONOVICH
Tritikale seleksiyasida molekulyar markerlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi: QTL, SSR, SNP va KASP yondashuvlari asosida.....30
KARIMOV NURBEK DEXKANOVICH
Yeryong‘oq yetishtirishda oqqanotga qarshi kimyoviy himoya tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini baholash.....43
SAYIPOV BEGZOD RAHIMOVICH
Valyuta kursi tebranishlari indeksini hisoblash va baholash.....53
KARIMOV NURBEK DEXKANOVICH
Yeryong‘oq ekinlarida o‘rgimchak kanaga qarshi kimyoviy kurash choralarining iqtisodiy samaradorligini baholash.....63
SHOMURODOV TOHIR BOYMUROD O‘G‘LI
Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda aholi daromadlarining o‘rni haqidagi nazariy yondashuvlar.....73
МУСТАФОКУЛОВА ЗАРИФА
Сравнительный анализ лидерства в условиях кризиса и роль молодых лидеров в развитии.....80
BOZOROVA MUHABBAT TOXTAYEVNA
Korxonalarda davr xarajatlarining iqtisodiy mohiyati, mazmuni va tasnifi.....87
RAXIMJONOVA SHOHSANAM BAXODIROVNA
Davlat-xususiy sheriklik asosida ijtimoiy soha infratuzilmasini rivojlantirishda "Value for Money" (VfM) baholash mexanizmini takomillashtirish.....95
QURBANOVA OYDIN TO‘LQIN QIZI
Ishlab chiqarish korxonalari raqobatbardoshligini baholashning integral ko‘rsatkichini shakllantirish.....101
SADIKOVA SHOHIDA OBIDQUL QIZI
O‘zbekistonda piyoz yetishtirishning iqtisodiy o‘rni va samaradorligi.....108
XAKIMOV RASHID
Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning o‘rni va samaradorligi.....119
TOJIMATOV IZZATBEK IKROMALI O‘G‘LI
Don mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida intellektual marketing strategiyasini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....133
SODIQOVA GAVHAR XAYRULLA QIZI
Xodimlarni boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....142
ERGASHEV ASADBEK ULUG‘BEK O‘G‘LI, TURSUNOV G‘IYOS SUNNAT O‘G‘LI
Meva-sabzavotlarni qayta ishlashda hosil bo‘ladigan ikkilamchi resurslarni biotexnologik qayta ishlash va ulardan samarali foydalanish.....148

RASULOV XAMIDJON YAKUBOVICH
Raqamli texnologiyalar va CRM tizimlarining kichik biznesdagi o‘rni.....155
BOZOROVA MUHABBAT TOXTAYEVNA
Korxonalarda davr xarajatlarini buxgalteriya hisobini tashkil etish va uning tahlili.....168
YULDASHOV ABDUMALIK ILXOMOVICH
Ekoturizmning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini ekonometrik baholash.....185
YULDASHOV ABDUMALIK ILXOMOVICH
Ekoturizmning hududiy iqtisodiy rivojlanishdagi rolini baholashning nazariy-metodologik asoslari.....192
MUHAMMADIEV NAUFALBEK AZIZXON O‘G‘LI
Elektron tijoratda sun’iy intellektdan foydalanishning kichik biznes savdo hajmiga ta’siri.....202
АБДУЛЛАЕВ АКМАЛЖОН АБДУЖАЛИЛОВИЧ
Процедура нормирования частных показателей при оценке ресурсного потенциала аграрного сектора: сравнительный анализ методов и обоснование выбора.....210
XASANOVA RUXSORA RASULJON QIZI
O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirishning hududiy xususiyatlari va iqtisodiy samaradorligini oshirish.....223
UMAROVA XUSNORA DILMUROD QIZI
Orolbo‘yi mintaqasida xizmat ko‘rsatish korxonalarini moslashuvchan (adaptiv) boshqarishning ma’lumotlarga asoslangan modelini takomillashtirish.....229
АБДУЛЛАЕВ АКМАЛЖОН АБДУЖАЛИЛОВИЧ, ХОЛБЕКОВ ЖУРЪАТ АБДИНАБИЕВИЧ
Теоретико-методологические основы оценки ресурсного потенциала аграрного сектора: концептуальный подход и методика интегральной оценки.....234
UMARALIYEV DIYORBEK SHUKIRALI O‘G‘LI
Tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy etishning fermer xo‘jaliklari xarajat va daromadlariga ta’siri: subsidiya samaradorligining iqtisodiy bahosi (2019–2025 yillar).....247
MIRAXMEDOVA KAMOLA
O‘zbekistonda turizm korxonalarini strategik boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....254
RAVSHANOVA ORZIGUL INOYAT QIZI
O‘zbekistonning xalqaro soliq tizimiga integratsiyasi: BEPS minimum standartlari va ularning milliy soliq siyosatidagi ahamiyati.....261
IRGASHEV ABBOS JUMANAZAROVICH
Anor yetishtirish va sotish qiymat zanjirida ishtirokchilarning daromadlari ulushini iqtisodiy baholash.....274
BAXADIR ADILCHAEV
Agroturizm qishloq iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va hududlarning barqaror rivojlanish vositasi sifatida.....283
XO‘JAMOVA LATOFAT ASADULLAEVNA
Yashil iqtisodiyot sharoitida agrobiznesda innovatsion jarayonlarni boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari.....290
BOZOROV BOBUR HAQBERDIYEVICH
Qurilishni moliyalashtirish samaradorligiga narx omillarining ta’sirini ekonometrik baholash.....297
RAVSHANOVA ORZIGUL INOYAT QIZI
Chegaralararo soliq munosabatlari: muammolar va rivojlanish istiqbollari.....307

KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH
O‘zbekiston kimyo sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida mavsumiylikning moliyaviy barqarorlikka ta’siri: panel tahlil (2018–2026-yillar)……322
IRGASHEV ABBOS JUMANAZAROVICH
Surxondaryo viloyatida anor ishlab chiqarish va sotish samaradorligini oshirish imkoniyatlari……331
ЛЯМКИНА ВИКТОРИЯ АЛЕКСАНДРОВНА, НАБИЕВА АНОРГУЛ МУХАМЕТКАЗИЕВНА
Механизмы трансформации и управления предпринимательским университетом в условиях цифровой экономики……338
YUSUFALIYEV OLIMJON ABDURAXMONOVICH
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyati samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish……347
SAYITQULOV JAHONGIR ILHOMOVICH
Tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarini takomillashtirish istiqbollari……358
KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH
Mavsumiy moliyaviy siklni identifikatsiyalash va moliyaviy barqarorlikning mavsumiy tuzatilgan ko‘rsatkichlari (mineral o‘g‘itlar ishlab chiqaruvchi korxona misolida)……365
QODIROV ZOHIDJON ERALIEVICH
Suv resurslarini boshqarishning iqtisodiy mohiyati va tamoyillari……373
ZAFAR QODIROV ABDIVAXOBOVICH
Long-term asset valuation and accounting in Uzbekistan: a comparative analysis of national accounting standards……381
SHAVQIDINOVA DILNAVOZ
AQSH va Yevropa ittifoqi mamlakatlari organik meva-sabzavotlar sertifikatlaridagi farqlar……389
KUBAYEV DJASUR ABDUMUMINOVICH
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish omillari……395
IBODILLAYEV HABIBULLA ABDULLAYEVICH
Madaniy meros obyektlarida turizm tadbirkorligini rivojlantirish orqali aholi bandligini ta’minlash yo‘llari……401
SHAVQIDINOVA DILNAVOZ
IFOAM – organics international: organik standartlar, sertifikatlash, organik bozor va siyosat bo‘yicha statistik tahlili……407
MAYLIYEVA SADOQAT SAFAYOZOVNA
Mintaqada tadbirkorlik salohiyatidan samarali foydalanishning ustuvor yo‘nalishlari (Xorazm viloyati misolida)……413
SHIRINOV UCHQUN ABDUXALILOVICH
MHXS talablari asosida tashqi segmentar hisobotni shakllantirish metodikasi..421
ABDINAZAROV XUSAN SHAYMANOVICH, NORQOBILOVA FERUZA ABDUXOMIDOVNA
Klasterlash va infratuzilma o‘rtasidagi bog‘liqlikni ekonometrik modellashtirish……430
SA’DULLAYEVA SAYYORA NASILLO QIZI
Neft-gaz sanoati korxonalarida moddiy xarajatlarning kompleks tahlili……439
ABDINAZAROV XUSAN SHAYMANOVICH, NORQOBILOVA FERUZA ABDUXOMIDOVNA
Klasterlashni rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlari……447

SATTAROV SHUXRAT XASANOVICH
O‘zbekistonda xizmatlar sohasining rivojlanishi va diversifikatsiya tendensiyalari.....458
KAMALKARIEVA NILUFAR XALIKBEKOVNA
Qurilish materiallari korxonalarida yangi mahsulotlarni o‘zlashtirish va sifatni oshirishning iqtisodiy samaradorligini baholash.....467
СЕЙТНАЗАРОВ БАХАДИР МУРАТБАЕВИЧ
Экономическая оценка устойчивого развития аграрного сектора в условиях дефицита водных ресурсов (на примере Республики Каракалпакстан).....475
TURDIYEV ULUG‘BEK QAYUMOVICH
Sanoat o‘sishining uzoq muddatli rivojlanish tendensiyalarini aniqlash.....484
OBLOQULOV ABDURAUF OLIMJON O‘G‘LI
Institutsional iqtisodiyot va iqtisodiy o‘sish: rasmiy va norasmiy institutlarning roli.....493
JUMANAZAROV KODIRJON SALYAYEVICH
Sanoat korxonalarida raqamli strategiyani shakllantirishning metodologik yondashuvlari.....501
NARMAMATOV IXTIYAR BAXTIYAROVICH, SHERMATOVA NARGIZA ZAFAR QIZI
Zamonaviy bozor sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasi subyektlarining iqtisodiy barqarorligini ta’minlash strategiyalari.....512
ALIYEV AZIM TOLIB O‘G‘LI
Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini boshqarish usullari va uslublarini takomillashtirish: nazariy-amaliy tahlil va modellashtirish.....518
ABDULLAYEVA AZIZA MURAT QIZI
Ipoteka kreditlashning nazariy asoslari va xorijiy modellari: AQSH, Germaniya, Qozog‘iston va Malayziya tajribasi.....528
YUNUSOV BEGENCH MAVLANBERDIEVICH, MINASIPOV BURXAN BAXTIYOROVICH
Suv xo‘jaligi infratuzilmasidan samarali foydalanish — iqtisodiy barqarorlikning muhim omili.....539
АЙТБАЕВА ГУЛЬЗАДА КУАНЫШБАЕВНА
Эффективные механизмы государственно-частного партнерства в сфере услуг.....546
SADIQOV ZAFARBEK ADILBEKOVICH
Banklarda likvidlik ko‘rsatkichlarini buxgalteriya hisobi ma’lumotlari asosida tahlil qilish.....554
ODILOVA DILNOZA BARNAYEVNA
Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda intellektual kapitalning ko‘p omilli ta’sir mexanizmini takomillashtirish.....563
IBODULLAYEV DOSTON SOBIRJON O‘G‘LI, DJURAYEV BEKZOD BEKMATOVICH
Sutchilik fermer xo‘jaliklarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish va ozuqa bazasini rivojlantirish istiqbollari.....574
QULMATOV CHORI ANOROVICH
Korxonalar moliyasini nazorat qilishning uslubiy asoslari.....582
YAKUPOVA AYZADA NIZAMATDINOVNA
Agrar sohada barqaror rivojlanish mexanizmlarining xorijiy tajribasi va uni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish.....590
XUDAYBERGANOV ZOXIDJON DJURAKULOVICH
Xizmat sohasida raqobatbardoshlik nazariyalari evolyutsiyasi va ularning raqamli iqtisodiyotdagi talqini.....602
XONTO‘RAYEV IBROXIM ABDIKAMOL O‘G‘LI
Oliy ta’limda sun’iy intellekt asosidagi intellektual axborot tizimlaridan foydalanish.....613

ATANIYAZOVA MAKSUDA BALTABAYEVNA
Zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar davrida davlat-xususiy sheriklikning mohiyati.....622
KARIMOV JAMSHID NIZOMIDDIN O‘G‘LI
Mamlakatimiz kichik sanoat zonalarini rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish imkoniyatlari.....633
JUMABOYEV DILMUROD ABDIFATTO O‘G‘LI
Quyosh va shamol elektr stansiyalari samaradorligini uch qatlamda baholash.....641
BO‘RIBAYEVA QUNDIZ MURATBAYEVNA
O‘zbekistonda fermer xo‘jaliklari mahsulotlari hajmini prognozlash: TREND modeli yondashuvi.....649
ATANIYAZOVA MAKSUDA BALTABAYEVNA
Davlat iqtisodiyotining rivojlanish evolyutsiyasida davlat-xususiy sheriklikning o‘rni va ahamiyati.....657
КЕНДЖАЕВА ДИЛДОРА ХУДАЙБЕРГАНОВНА
Объяснимый искусственный интеллект (XAI): обеспечение прозрачности и доверия пользователей в образовательных решениях — концептуальная модель.....666
IBRAGIMOV SIROJIDDIN BAXODIROVICH
Davlat ishtirokidagi real sektor korxonalarining moliyaviy holatini yuksaltirishga salbiy ta’sir etuvchi omillar, ularni bartaraf etish va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish mexanizmlari.....676
AHMEDOV SHOHJAHON
ROPO (onlayn o‘rganib, oflayn xarid qilish) effektini hisobga olgan chakana savdo marketing strategiyasini shakllantirishning metodologik asoslari.....684
ЖУМАНИЯЗОВА ДУРДОНА
Юқори тартибли операторли тенгламалар ечимларининг умумлаштирилган ХАРТОГС қаторларига ёйилмаси.....694
ISAHANOV MUSLIMJON MARIFJON O‘G‘LI
Tuproq unumdorligini oshirishni iqtisodiy rag‘batlantirishda agroekologik to‘lovlar va eko-sxemalarning ahamiyati: Yevropa ittifoqi tajribasi.....705
DEXKANOVA SHAXLOXON SAGDIYEVNA
Sabzavotchilikda biologik aktivlarni baholash va moliyaviy natijani shakllantirishni 41-son BHXS ga muvofiq takomillashtirish.....710
КАДЫРОВ АБДУКАДЫР АМАНОВИЧ
Обеспечение экономической безопасности системы корпоративного управления акционерных компаний Республики Узбекистан.....715
XUDAYAROV OYBEK ODILOVICH
Tijorat banklari biznes modellarini transformatsiya qilishda raqamli bank xizmatlarining o‘rni.....724
XUJANOV ELBEK
Oliy ta’limda LMS asosida talabalar davomati va o‘zlashtirishini monitoring qilish: amaliy yondashuv.....731
MUXAMMADSIDIQOV OTABEK DILSHODBEK O‘G‘LI
Kichik biznesda inqiroz xavfini aniqlashning moliyaviy diagnostika usullari.....740
KADIROV SAXOBIDDIN SHAROFOVICH
Investitsiyalar hisobida xalqaro standartlardan foydalanish.....748
ISAKHANOV MUSLIMJON MARIFJON UGLI
Mechanisms for economic incentives for cultivating cover crops to increase soil fertility: US experience.....754

INVESTITSIYALAR HISOBIDA XALQARO STANDARTLARDAN FOYDALANISH

KADIROV SAXOBIDDIN SHAROFOVICH
Renessans ta'lim universiteti,
"Iqtisodiyot va moliya" departamenti dotsenti i.f.f.d., (PhD)
E-mail: s.kadirov89@mail.ru, s_kadirov@renessans-edu.uz
ORCID: 0000-0003-3983-5657

Annotatsiya. Mazkur maqolada investitsiyalar hisobida xalqaro moliyaviy hisobot standartlaridan foydalanish masalalari yoritilgan. Investitsiyalarni tan olish, tasniflash va baholashda IFRS 9, IAS 28, IFRS 10 hamda IFRS 11 standartlarining ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, investitsiyalarni dastlabki va keyingi baholash tartibi, investitsiya rentabelligini aniqlash hamda O'zbekiston amaliyoti va xalqaro standartlar o'rtasidagi asosiy farqlar ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida investitsiyalar hisobining shaffofligi va moliyaviy hisobotlarning taqqoslanuvchanligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.
Kalit so'zlar: investitsiyalar, xalqaro standartlar, IFRS 9, moliyaviy aktivlar, adolatli qiymat, amortizatsiyalangan qiymat, investitsiya rentabelligi, moliyaviy hisobot.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы применения международных стандартов финансовой отчетности в учете инвестиций. Проанализировано значение стандартов IFRS 9, IAS 28, IFRS 10 и IFRS 11 при признании, классификации и оценке инвестиций. Также рассмотрены порядок первоначальной и последующей оценки инвестиций, определение рентабельности инвестиций и основные различия между практикой Узбекистана и международными стандартами. По результатам исследования разработаны предложения по повышению прозрачности учета инвестиций и сопоставимости финансовой отчетности.
Ключевые слова: инвестиции, международные стандарты, IFRS 9, финансовые активы, справедливая стоимость, амортизированная стоимость, рентабельность инвестиций, финансовая отчетность.

Abstract. This article examines the application of international financial reporting standards in investment accounting. The importance of IFRS 9, IAS 28, IFRS 10 and IFRS 11 in the recognition, classification and measurement of investments is analyzed. The study also considers the initial and subsequent measurement of investments, the calculation of investment profitability, and the main differences between accounting practices in Uzbekistan and international standards. Based on the analysis, recommendations are developed to improve the transparency of investment accounting and the comparability of financial reporting.
Keywords: investments, international standards, IFRS 9, financial assets, fair value, amortized cost, investment profitability, financial reporting.

KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiyotning rivojlanishi va investitsiya faoliyatining kengayishi sharoitida investitsiyalar to'g'risidagi ishonchli va shaffof axborotga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Investitsiyalarni to'g'ri hisobga olish va moliyaviy hisobotlarda haqqoniy aks ettirish korxonalarning moliyaviy holatini baholash hamda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, investitsiyalar hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablari asosida tashkil etish dolzarb masalalardan biridir. Xalqaro standartlardan foydalanish investitsiyalarni tan olish, baholash va hisobotlarda

aks ettirishning yagona tamoyillarini shakllantirish, moliyaviy axborotning shaffofligi va taqqoslanuvchanligini oshirish imkonini beradi.

O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish jarayonida investitsiyalar hisobini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu sababli investitsiyalar hisobida xalqaro standartlardan samarali foydalanish, mavjud amaliyotdagi muammolarni aniqlash va hisob metodikasini takomillashtirish yo‘llarini ishlab chiqish mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Investitsiyalar hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish masalalari mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan. Mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarda investitsiyalarni tan olish, tasniflash, baholash, daromadlarni hisobga olish hamda moliyaviy hisobotlarda ochib berish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

IFRS Foundation tomonidan ishlab chiqilgan *IFRS 9 “Financial Instruments”* standartida moliyaviy investitsiyalarni tan olish, tasniflash va baholash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Mazkur standart moliyaviy aktivlarni baholashda korxonaning biznes modeli va shartnomaviy pul oqimlarining xususiyatlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Bu yondashuv investitsiyalar qiymatini ularning iqtisodiy mazmuniga mos ravishda aks ettirish imkonini beradi [1].

IAS 28 “Investments in Associates and Joint Ventures” standartida assotsiatsiyalashgan va qo‘shma korxonalarga kiritilgan investitsiyalarni hisobga olish tartibi belgilangan. Standartda investorning investitsiya obyektiga nisbatan sezilarli ta’siri mavjud bo‘lgan holatlarda ulushli ishtirok usulidan foydalanish masalalari yoritilgan. Mazkur yondashuv investitsiya obyektining moliyaviy natijalarini investor hisobotida aks ettirish imkonini beradi [2].

IFRS 10 “Consolidated Financial Statements” standartida investitsiya obyektlari ustidan nazoratni aniqlash va nazorat mavjud bo‘lgan hollarda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni shakllantirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Ushbu standart investitsiyalar hisobida nazorat tushunchasining muhim ahamiyatga ega ekanligini belgilaydi [3].

Kieso, Weygandt va Warfieldlarning “Intermediate Accounting” asarida investitsiyalarni hisobga olish masalalari moliyaviy hisobotning umumiy tamoyillari bilan bog‘liq holda tahlil qilingan. Mualliflar moliyaviy aktivlarni tan olish, baholash va ulardan olinadigan daromadlarni hisobga olish masalalariga e’tibor qaratgan. Mazkur tadqiqot investitsiyalar hisobini amaliy jihatdan tashkil etishning muhim yo‘nalishlarini tushunishga yordam beradi [4].

Epstein va Jermakowiczning “Interpretation and Application of International Financial Reporting Standards” asarida xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini amaliyotda qo‘llash masalalari keng yoritilgan. Mualliflar IFRS talablarini korxonalarning amaliy faoliyatiga tatbiq etish, moliyaviy axborotning shaffofligi va taqqoslanuvchanligini ta’minlash masalalariga e’tibor qaratgan [5].

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

O‘rganilgan adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, investitsiyalar hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etishda investitsiyalarni to‘g‘ri tan olish, tasniflash, baholash va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish asosiy masalalar hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarning amaliyotda qo‘llanilishi investitsiyalar to‘g‘risidagi axborotning ishonchliligi, shaffofligi va taqqoslanuvchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Shundan kelib chiqib, investitsiyalar hisobida xalqaro standartlardan foydalanish bilan bir qatorda, ularning milliy hisob tizimida qo‘llanilish mexanizmlarini takomillashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida investitsiyalar hisobini xalqaro standartlar asosida o‘rganish uchun taqqoslash, tahlil qilish, guruhlash va iqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblash usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosi sifatida IFRS 9, IAS 28, IFRS 10 va IFRS 11 xalqaro moliyaviy hisobot standartlari olindi.

Tahlil davomida investitsiyalarni dastlabki va keyingi baholash tartibi, ularni tasniflash mezonlari, daromadlarni tan olish hamda investitsiyalar bilan bog‘liq moliyaviy xatarlarni hisobga olish xususiyatlari o‘rganildi. Shuningdek, O‘zbekiston amaliyoti xalqaro standartlar talablari bilan taqqoslandi va investitsiyalar samaradorligini baholash uchun o‘sish sur’ati, rentabellik hamda jami aktivlardagi ulush ko‘rsatkichlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Investitsiyalarni hisobga olishning muhim bosqichlaridan biri ularni dastlabki baholashdir. Xalqaro standartlarda moliyaviy aktivlar, odatda, dastlab tan olinganda adolatli qiymat bo‘yicha baholanadi. Agar moliyaviy aktiv foyda yoki zarar orqali adolatli qiymatda baholanmaydigan bo‘lsa, ayrim holatlarda bitim bilan bevosita bog‘liq xarajatlar ham dastlabki qiymatga kiritiladi.

Keyingi baholashda esa investitsiyaning turiga va uning hisobga olish kategoriyasiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, amortizatsiyalangan qiymatda hisobga olinadigan investitsiyalar bo‘yicha foiz daromadlari samarali foiz stavkasi usulidan foydalanib aniqlanadi. Adolatli qiymat orqali baholanadigan investitsiyalarda esa hisobot sanasidagi bozor qiymati asosida qayta baholash amalga oshiriladi. Bunday yondashuv investitsiyalarning haqiqiy iqtisodiy qiymatini moliyaviy hisobotlarda aks ettirish imkonini beradi.

IFRS 9 talablariga muvofiq investitsiyalar dastlab tan olinganda, odatda, adolatli qiymat bo‘yicha baholanadi. Keyingi baholash esa moliyaviy aktivning xususiyatlari va korxonaning uni boshqarish modeliga qarab amalga oshiriladi. Bunda investitsiyalar amortizatsiyalangan qiymat, boshqa umumlashgan daromad orqali adolatli qiymat (FVOCI) yoki foyda va zarar orqali adolatli qiymat (FVTPL) asosida hisobga olinishi mumkin. Mazkur tartib investitsiyalarning haqiqiy qiymati va ulardan olinadigan daromadlarni moliyaviy hisobotlarda to‘g‘ri aks ettirishga xizmat qiladi.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

1-jadval

Xalqaro standartlar asosida investitsiyalarni baholash tahlili

Investitsiya turi	Dastlabki baholash	Keyingi baholash	Daromadni tan olish
Amortizatsiyalangan qiymatdagi aktiv	Adolatli qiymat	Amortizatsiyalangan qiymat	Foiz daromadi
Foyda yoki zarar orqali adolatli qiymat	Adolatli qiymat	Adolatli qiymat	Foyda/zarar
Boshqa umumlashgan daromad orqali adolatli qiymat	Adolatli qiymat	Adolatli qiymat	OCI va dividend

IFRS 9 talablaridan kelib chiqib, investitsiyalarni baholash ularning iqtisodiy xususiyatlari va korxonaning ularni boshqarish maqsadiga bog‘liq. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, dastlabki bosqichda investitsiyalar asosan adolatli qiymatda tan olinadi, keyingi bosqichda esa ularning turi va biznes modeliga qarab turlicha baholanadi. Amortizatsiyalangan qiymat usuli barqaror shartnomaviy pul oqimlariga ega investitsiyalar uchun, FVOCI va FVTPL usullari esa adolatli qiymatdagi o‘zgarishlarni hisobga olish zarur bo‘lgan investitsiyalar uchun qo‘llanadi. Shu sababli IFRS 9 investitsiyalarning qiymati va ulardan olinadigan daromadlarni moliyaviy hisobotlarda aniqroq aks ettirish imkonini beradi.

2-jadval

O‘zbekiston amaliyoti va xalqaro standartlar o‘rtasidagi farqlar

Mezoni	O‘zbekiston amaliyoti (12-son BHMS)	Xalqaro standartlar (IFRS 9)
Huquqiy asos	12-son BHMS “Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish”	IFRS 9 “Financial Instruments”
Tasniflash	Moliyaviy investitsiyalar qisqa va uzoq muddatli toifalarga ajratiladi	Moliyaviy aktivlar biznes modeli va shartnomaviy pul oqimlari xususiyatiga ko‘ra tasniflanadi
Dastlabki baholash	Investitsiyaning turiga va belgilangan hisob qoidalariga muvofiq	Odatda adolatli qiymat bo‘yicha
Keyingi baholash	Investitsiya toifasi va tegishli hisob qoidalariga muvofiq	Amortizatsiyalangan qiymat, FVOCI yoki FVTPL asosida
Qadrsizlanish	Investitsiya qiymatining qaytarilmaydigan pasayishi hisobga olinadi	Kutilayotgan kredit yo‘qotishlari modeli qo‘llaniladi
Hisobotda aks ettirish	Milliy standartlarda belgilangan tartibda	Moliyaviy aktivlarning turi, qiymati va moliyaviy xatarlari bo‘yicha kengroq ochib berish talablari mavjud

O‘zbekiston amaliyoti va xalqaro standartlar o‘rtasidagi farqlarni o‘rganish investitsiyalar hisobini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Xalqaro standartlarda investitsiyalarni tasniflash, baholash, daromadlarni tan olish va qadrsizlanishni aniqlashda ularning iqtisodiy mazmuni hamda moliyaviy xatarlariga alohida e’tibor qaratiladi. 2024-yil 18-iyulda ro‘yxatdan o‘tkazilgan

12-son BHMS “Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish” O‘zbekistonda moliyaviy investitsiyalarni hisobga olishning milliy asoslaridan biridir. Shu bilan birga, IFRS 9 O‘zbekistonda 2022-yil 9-dekabrda 3400-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Quyidagi jadvalda O‘zbekiston amaliyoti va IFRS 9 talablari o‘rtasidagi asosiy farqlar keltirilgan (2-jadval).

Jadvaldan ko‘rinadiki, O‘zbekistonning 12-son BHMSida moliyaviy investitsiyalarni qisqa va uzoq muddatli toifalarga ajratish hamda ularning qiymatini moliyaviy hisobotlarda aks ettirish tartibi belgilangan. IFRS 9da esa moliyaviy aktivlarni tasniflash va keyingi baholashda biznes modeli hamda shartnomaviy pul oqimlarining xususiyatlariga asoslangan yondashuv qo‘llaniladi. Shu jihatdan xalqaro standartlar investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni va moliyaviy xatarlarini yanada batafsil hisobga olishga yo‘naltirilgan.

Investitsiyalar samaradorligini baholashda ularning hajmi, o‘zgarish sur’ati va korxona faoliyatidagi ulushini aniqlash muhim hisoblanadi. Mazkur ko‘rsatkichlar investitsiyalardan foydalanish darajasini baholash, yillar kesimidagi o‘zgarishlarni aniqlash hamda investitsion faoliyat natijalarini tahlil qilish imkonini beradi. Shu maqsadda quyidagi asosiy ko‘rsatkichlarni hisoblash mumkin:

1. Investitsiyalar o‘sish sur’ati:

O‘sish sur’ati = (Joriy yil investitsiyasi / Bazis yil investitsiyasi) × 100%

2. Investitsiya rentabelligi:

Investitsiya rentabelligi = (Investitsiyadan olingan daromad / Investitsiyalarning o‘rtacha qiymati) × 100%

3. Investitsiyalarning jami aktivlardagi ulushi:

Investitsiyalar ulushi = (Investitsiyalar qiymati / Jami aktivlar qiymati) × 100%

Yuqorida keltirilgan formulalardan foydalanib, investitsiya rentabelligini hisoblash bo‘yicha amaliy misolni ko‘rib chiqamiz. Masalan, korxona 2025-yilda investitsiyaga 100 mln so‘m mablag‘ kiritdi va yil yakunida undan 15 mln so‘m daromad oldi. Investitsiya rentabelligi = (15 / 100) × 100% = 15%. Demak, korxonaning investitsiya rentabelligi 15 foizni tashkil etgan. Ya’ni har 100 so‘mlik investitsiya hisobiga 15 so‘m daromad olingan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Investitsiyalar hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish korxonalarning moliyaviy hisobotlarida investitsiyalarni to‘g‘ri baholash, daromadlarni haqqoniy aks ettirish va moliyaviy axborotning shaffofligini oshirishga xizmat qiladi. Tahlil natijalariga ko‘ra, IFRS 9 talablari asosida investitsiyalarni ularning xususiyatlari va korxonaning boshqaruv maqsadlaridan kelib chiqib tasniflash hamda baholash muhim ahamiyatga ega.

Investitsiyalar hisobini yanada takomillashtirish uchun korxonalarda xalqaro standartlar talablariga mos hisob siyosatini shakllantirish, investitsiyalarni adolatli qiymatda baholash mexanizmlarini rivojlantirish, moliyaviy xatarlarni muntazam baholash va investitsiyalar to‘g‘risidagi

axborotlarni moliyaviy hisobotlarda to‘liqroq ochib berish taklif etiladi. Bu choralar investitsiyalar hisobining aniqligi va moliyaviy hisobotlarning taqqoslanuvchanligini oshirishga imkon beradi.

Takliflar.

1. Korxonalarda investitsiyalarni hisobga olishni IFRS 9 talablariga yanada moslashtirish va hisob siyosatida investitsiyalarni tasniflash mezonlarini aniq belgilash.

2. Investitsiyalarni baholashda adolatli qiymatni aniqlash usullaridan kengroq foydalanish va baholash jarayonining shaffofligini oshirish.

3. Investitsiyalar bilan bog‘liq moliyaviy xatarlarni muntazam tahlil qilish hamda kutilayotgan kredit yo‘qotishlarini o‘z vaqtida hisobga olish.

4. Moliyaviy hisobotlarda investitsiyalarning qiymati, daromadliligi va ular bilan bog‘liq xatarlar to‘g‘risidagi axborotlarni to‘liqroq ochib berish.

5. Korxonalarda xalqaro standartlarni qo‘llash bo‘yicha buxgalter va moliyaviy mutaxassislarning malakasini oshirish**.**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. IFRS Foundation. IFRS 9 Financial Instruments. London: IFRS Foundation.

2. IFRS Foundation. IAS 28 Investments in Associates and Joint Ventures. London: IFRS Foundation.

3. IFRS Foundation. IFRS 10 Consolidated Financial Statements. London: IFRS Foundation.

4. Kieso, D. E., Weygandt, J. J., Warfield, T. D. Intermediate Accounting. 18th Edition. Wiley, 2023.

5. Epstein, B. J., Jermakowicz, E. K. Interpretation and Application of International Financial Reporting Standards. Wiley, 2019.

6. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 14-iyundagi 138-son buyrug‘i. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (12-son BHMS) “Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish”. Ro‘yxat raqami 3531, 2024-yil 18-iyul.

2026-yil, oktabr. №10-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy